

АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 278-287 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUD IQTISODIYOTI TUZILMASINI O'ZGARTIRISHNING MOLIVAVIY SALOHİYATI UNSURLARI



Акромов Г'olibjon Bahodir o'g'li,
TDIU huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy tadqiqot *markazi tayanch doktoranti*

Аннотация. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish, yalpi hududiy mahsulot hamini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirishva iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Калит so'zlar: iqtisodiy tizim, milliy iqtisodiyot, iqtisodiyot tuzilmasi, barqaror rivojlanish, salohiyat, budjet, davlat budjeti, mahalliy budjet, yalpi hududiy mahsulot, hududning moliyaviy salohiyati, aholi farovonligi.

ЭЛЕМЕНТЫ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА ИЗМЕНЕНИЯ СТРУКТУРЫ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНА

Акромов Голибжон Баходир угли,
Базовый докторант центра "Научные основы и проблемы экономического развития Узбекистана" при ТГЭУ

Аннотация. Обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане путем диверсификации структуры экономики и повышения ее конкурентоспособности, последовательного внедрения рыночных механизмов во все отрасли экономики, сокращения бедности и повышения благосостояния населения, ускоренного развития цифровой экономики, трансформации государственных компаний, снижения участия государства в экономике составляют приоритетные направления проводимых в настоящее время экономических реформ. В рамках данной экономической реформы важное место займут такие вопросы, как повышение финансового потенциала регионов, увеличение валового регионального

продукта. Исходя из этого, в данной статье проанализированы теоретические аспекты повышения финансового потенциала регионов.

Ключевые слова: экономическая система, народное хозяйство, устойчивое развитие, потенциал, бюджет, государственный бюджет, местный бюджет, структура экономики, валовой региональный продукт, финансовый потенциал региона, благосостояние населения.

ELEMENTS OF THE FINANCIAL POTENTIAL OF CHANGING THE STRUCTURE OF THE REGION'S ECONOMY

Akramov Golibjon Bahodir ugli,

Basic doctoral student of the center "Scientific foundations and problems of economic development of Uzbekistan" at TSUE

Annotation. Ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan by diversifying the structure of the economy and increasing its competitiveness, consistent implementation of market mechanisms in all sectors of the economy, reducing poverty and improving the welfare of the population, accelerated development of the digital economy, transformation of state-owned companies, and reducing state participation in the economy are the priorities of the economic reforms currently underway. Within the framework of this economic reform, issues such as increasing the financial potential of the regions and increasing the gross regional product will occupy an important place. Based on this, this article analyzes the theoretical aspects of increasing the financial potential of the regions.

Keywords: economic system, national economy, sustainable development, potential, budget, state budget, local budget, gross regional product, the structure of the economy, financial potential of the region, welfare of the population.

Kirish. Jahon xo'jaligi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Taraqqiyotning mazkur bosqichi texnik va texnologik yangilanishning yuqori sur'atlari, inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish va raqamlashtirish bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda milliy, xususan hudud iqtisodiyoti tuzilmasini o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy, jumladan hudud iqtisodiyoti tuzilmasini o'zgartirish innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ta'sirida mavjud bozorlarni kengaytirish va yangilarini barpo qilish asnosida kechadi. Hudud iqtisodiyoti tuzilmasini o'zgartirish jarayonlarini rag'batlantirishda bazaviy ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va yuqori texnologiyali zamonaviy tarmoqlarni yaratish uchun xizmat qiluvchi moliyaviy manbalarni shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Milliy iqtisodiyot va uning hududlari kesimida moliyaviy salohiyatni mustahkamlash va undan oqilona foydalanish nafaqat texnologik taraqqiyot muammolarini hal qilish, shu bilan bir qatorda, ijtimoiy sohani takomillashtirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohaning rivojlanishi o'z navbatida aholi turmush darajasini oshirish va milliy iqtisodiyotning texnologik rivojlanish sur'atlarini oshirishni ta'minlaydi.

Mazkur maqolada ko'tarilgan masalalarning dolzarbligi milliy va hududiy iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishning moliyaviy salohiyatini tadqiq qilish

nazariyasini shakllantirish, moliyaviy salohiyatning o'ziga xos unsurlarini tahlil qilish, tuzilmaviy o'zgarishlar moliyaviy salohiyatini tasniflash, moliyaviy salohiyat va hudud iqtisodiyoti tuzilmasini takomillashtirishning o'zaro ta'sirini baholash kabilar bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy iqtisodiyotning tashkil etuvchilari sifatida hududlar iqtisodiyoti tuzilmasini takomillashtirishning moliyaviy manbalarini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liq mahalliy va xorijiy tadqiqotlar hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslarini takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Mahalliy mutaxassis va olimlarning ilmiy izlanishlarida milliy iqtisodiyotni innovatsion jihatdan rivojlantirish borasida moliyaviy resurslarni jalb qilish muammolariga keng e'tibor qaratiladi.

Professor B. A. Xasanovning umumiy tahriri ostida chop qilingan "Moliya va soliqlar" darsligida moliyaviy salohiyat moliyaviy siyosatning natijaviy ko'rsatkichi, iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishning manbai sifatida talqin qilinadi [1].

Tadqiqotchi F. Yo'ldoshevning fikricha, "korxonaning rivojlanish salohiyati - bu o'ziga xos tarkibiy qismlar (unsur va tashkil etuvchilar)ga ega bo'lgan murakkab tizim bo'lib, uni samarali boshqarish mazkur tizimning qanchalik o'rganilganligiga ko'p jihatdan bog'liq" [2]. Mualliflarning salohiyatning tizimli tavsifga egaligi borasidagi qarashlariga qo'shilgan holda, salohiyat resurs, imkoniyat va qobiliyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanuvchi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan tizim ekanligini ta'kidlaymiz.

Milliy moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan va hududning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hal qilishda foydalaniluvchi muayyan bir hududning salohiyatidan foydalanish nuqtai nazaridan hududning moliyaviy salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, tadqiqotchi J. Ergashev hudud moliyaviy salohiyatini "moliyaviy imkoniyatlarni tartibga solishning umumiy mexanizmini shakllantirish, hududlarning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarining o'zaro integratsiyasi, ularning davlat budjeti bilan o'zaro bog'liqligi" sifatida talqin qiladi [3].

L. Buranovanning fikriga ko'ra, hududning moliyaviy salohiyati "xo'jalik yurituvchi sub'yekt investitsiya jarayonini ta'minlash maqsadida ajratishi mumkin bo'lgan pul kapitali shaklida ifodalangan jamg'arilgan moliyaviy resurslar to'plami"ni ifoda etadi [4].

X. Kobulov o'z tadqiqotlarida hududning moliyaviy salohiyatining iqtisodiy mazmunini ochib berishda uch asosiy jihat: hududning resurs va zahiralari yarata olish qobiliyati, moliyaviy va pul resurslari to'plami, hududning iqtisodiy aloqalarini ajratib ko'rsatadi [5]. L. Xazratqulovanning yondashuviga ko'ra, hududning moliyaviy infratuzilmasi moliyaviy resurslarni shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi [6].


Aksariyat olim va tadqiqotchilar moliyaviy resurslarni "hudud moliyaviy salohiyati" tushunchasini aniqlashtirishning asosiy jihati sifatida e'tirof qilishadi. Bu hududning moliyaviy salohiyatini ro'yobga chiqarish natijasi ko'p jihatdan moliyaviy resurslar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning moliyaviy salohiyatning mohiyati, baholash va uni shakllantirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, ilmiy yondashuvlari, statistik, davriy axborot nashrlarida mavzuga oid chop qilingan ilmiy

materiallar, Internet resurslari tashkil qiladi.

Asosiy qism. Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra 2023 yilda global iqtisodiyot 3,1%ga o'sgan. Bir nechta omillar jahon iqtisodiyotining o'sishiga xizmat qildi: AQSh iqtisodiyotining kutilganidan yuqori o'sishi, ko'plab davlatlarda ishsizlik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan holda inflyatsiyaning pasayishi, Xitoydagi fiskal rag'batlantirish shular jumlasidan. Shu bilan birga, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro savdoda so'nggi 50 yildagi eng past o'sish kuzatildi.

Davlatlar tomonidan inflyatsiyani pasaytirish bo'yicha nisbatan yuqori foiz stavkalarining ushlab turilishi va yuqori qarz darajasi fonida fiskal qo'llab-quvvatlash xarajatlarining kamaytirilishi natijasida 2024 yilda ham iqtisodiy o'sish 3,1% atrofida shakllanadi. 2024 yilda global inflyatsiya 3,7% va 2025 yilda 3,4%ga tushishi kutilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda 2000-2023 yillar oralig'ida YaIM tarmoq tarkibining o'zgarishi


Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekiston YaIM o'sishi 2023 yilda 6,0%ni tashkil qildi. O'sish drayveri sifatida investitsiyalar 22,1%ga o'sib, 30 mlrd dollarga etdi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 56,2%ga o'sib, 14,2 mlrd dollarni tashkil qildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, YaIMga nisbatan tashqi savdo balansining manfiy saldosini 15,1%ni va konsolidatsiyalashgan budjet defitsitini 5,5%ni tashkil qildi. Milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasida ham sekin bo'lsa-da, o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, xususan 2000-2023 yillar oralig'ida YaIMda xizmatlar, sanoat ulushi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi o'zining 2000 yildagi 34,4 foizli ulushidan 2023 yilda 24,3 foizgacha pasaygan (1-rasm).

Iqtisodiy islohotlar va tadqiqotlar markazi hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda 2024 yilda iqtisodiy o'sish 5,8% atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bunda aholi iste'moli va investitsiyalar o'sishi mos ravishda 4,8% va 7,6%ni tashkil etadi [7].

2023 yilda konsolidatsiyalashgan budjet defitsitini 58,1 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 5,5%ni tashkil qildi. Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 321,1 trln so'm, xarajatlari 379,2 trln so'm bo'ldi. 2017-2022 yillarda nominal YaIM yiliga o'rtacha 23,4%ga,

konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 29,6%ga va davlat budjeti daromadlari 31,2%ga ko'paygan. 2023 yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari o'sish sur'ati 12,3%ni (2022 yilda - 39,9%) tashkil qilib, nominal YaIM o'sishidan (19%) ortda qolgan. Davlat budjeti daromadlari o'sishi 14,8% bo'lib, 2017-2023 yillarda birinchi marta YaIM o'sishidan past kuzatildi. 2024 yilda ham nominal YaIM o'sishi (22,1%) budjet daromadlari o'sishidan (16,8%) yuqori bo'lishi kutilmoqda[7]. Shu bilan bir qatorda, 2023 yil yakunlari bo'yicha mamlakat hududlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning o'sish sur'atlarini tahlil qilish birgina Toshkent shahrida YaHM Respublika ko'rsatkichidan yuqori ekanligini ko'rsatadi (109,3%).



2-rasm. 2023 yilda davlat budjeti daromadlarining ijrosi

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari


Eng past o'sish ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (103,5%), Surxondaryo viloyati (104,4%), Xorazm viloyati (104,4%) qayd etilgan. Mazkur tahlillar hududlar kesimida iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida hudud iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishning umumiy moliyaviy salohiyati uning sub'yektlari mezoniga ko'ra quyidagi unsurlar ko'rinishida ifodalanishi mumkin:

- mahalliy davlat boshqaruvi idoralari salohiyati;
- mahalliy korxonalar salohiyati;
- uy xo'jaliklari, jismoniy shaxslarning salohiyati.

Mahalliy davlat hokimiyati tuzilmalarining hudud iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha moliyaviy salohiyati ushbu tuzilmalar tomonidan to'plangan mahalliy soliq va yig'imlarning umumiy miqdori bilan belgilanadi. Mazkur salohiyatning eng yuqori qiymati ob'ektiv ravishda xususiy, mahalliy davlat hokimiyatiga tegishli mulkdagi biznes tuzilmalariga oqilona soliq yuki bilan cheklanadi [9].

Soliq yukining haddan tashqari yuqori bo'lishi davlat tuzilmalarining moliyaviy salohiyatining qisqa muddatli o'sishiga olib kelsada, biroq budjet tizimiga sezilarli soliq to'lovlarining yuqoriligi sharoitida biznes tuzilmalarining ishlab chiqarish va sotishni

ko'paytirishga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada pasayadi va yaqin istiqbolda mahalliy budjet tizimining mo'rtlashishiga olib keladi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2023 yilda davlat budjeti daromadlari foyda solig'i bo'yicha 87 foiz, QQS bo'yicha 87 foiz, aktsiz solig'i 90 foizga bajarilgan, bu o'z navbatida moliyaviy salohiyatni mustahkamlash va iqtisodiyot tarmoq tuzilmasini takomillashtirish o'rtasidagi nisbatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi (2-rasm).




3-rasm. Ishlab chiqarish sanoatida qo'shilgan qiymatning o'sishi, %

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari

Korxonalarining moliyaviy salohiyati iste'molchilar tomonidan talab qilinadigan mahsulotlarni yaratish va sotishda qo'shimcha qiymat yaratish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompaniyalarining moliyaviy salohiyati taqsimlanmagan foyda miqdori, ya'ni soliqqa tortish va dividendlar to'lashdan keyingi foyda va amortizatsiya fondi hajmi bilan belgilanadi. Korxonalarining moliyaviy salohiyatini bevosita belgilovchi omillar foyda miqdori, soliq yuki, dividend to'lovlari, amortizatsiya me'yori hisoblanadi. O'tgan yillar mobaynida korxonalar, xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalarining qo'shilgan qiymat yaratish qobiliyati nisbatan sekin o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin, bu o'z navbatida qayta ishlash sanoatini modernizatsiyalash, hududlarda sanoat loyihalarini kengaytirishni taqozo qiladi (3-rasm).

Uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslarning moliyaviy salohiyati yalpi talabning muhim manbai bo'lib, ichki bozor hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu salohiyat soliqqa tortilgandan keyin umumiy ish haqi hajmi, bank depozitlari bo'yicha foiz to'lovlari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar, investitsiya va investitsiya fondlariga investitsiyalardan olingan daromadlarni to'lash, pensiya va nafaqalarni to'lash bilan belgilanadi. Faqat o'z manbalari hisobidan shakllanadigan hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning moliyaviy salohiyati va qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatini hisobga oladigan hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning moliyaviy salohiyatini

farqlash muhimdir. Tahlillar keyingi yillarda O'zbekistonda yalpi jamg'arish nisbatlari pasayish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin (4-rasm).



4-rasm. O'zbekistonda yalpi jamg'arish nisbatlarining o'zgarishi, %

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari

Shubhasiz, dastlab tilga olib o'tilgan salohiyat qo'shimcha xarajatlarsiz safarbar qilinishi mumkin bo'lgan haqiqiy moliyaviy resurslarni aks ettiradi. O'z moliyaviy salohiyat manbalaridan foydalanishdan farqli o'laroq, qarzga olingan resurslarni safarbar qilish va ulardan foydalanish orqali umumiy moliyaviy salohiyatni kengaytirish katta moliyaviy xatarlarga olib keladi. Noqulay makroiqtisodiy sharoitlarda ularni amalga oshirish biznes tuzilmalari va uy xo'jaliklarining moliyaviy holatini sezilarli darajada yomonlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, korxonalar va uy xo'jaliklarining iqtisodiy asoslangan miqdordagi qarz mablag'larini jalb qilish qobiliyati ularning moliyaviy barqarorligi va jadal rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [8]. Shu sababli kreditga layoqatlilik xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy salohiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi kreditga layoqatlilikning asosi ularning kredit tarixi, ya'ni qarz oluvchi sifatidagi faoliyati natijalari hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish moliyaviy salohiyatining o'ziga xos unsurlari shakllantirish manbalari nuqtai nazaridan quyidagilardan tashkil topadi:

- soliq to'langandan so'ng korxonalarining foydasi;
- amortizatsiya;
- budjet tizimiga kelib tushuvchi soliqlar va yig'imlar;
- davlat korxonalarining budjet tizimiga to'lovlari;
- bank tizimi kreditlari;
- uy xo'jaliklari jamg'armalari;
- investitsiya va pensiya jamg'armalari resurslari;
- milliy moliya bozorining qarz vositalari;
- mikromoliyalash tashkilotlari resurslari;
- jahon moliya bozori va jahon bank tizimining resurslari;
- xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy hukumatlarning kreditlari;

- to'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalar.

Korxonalarning soliq to'langandan keyingi foydasi hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish moliyaviy salohiyatining eng muhim unsuridir. Korxonalar foydasining barqaror o'sishi barqaror rivojlanish va mazkur salohiyatning muttasil o'sishini ta'minlaydi. Shu sababli, yalpi mahsulotni, shu jumladan iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar bir vaqtning o'zida milliy moliyaviy salohiyatni kengaytirish choralari hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlarini takomillashtirish, ularning sifatini yaxshilash, etkazib berish, shu jumladan tashqi bozorlarga etkazib berish geografiasini kengaytirish, kompaniyalar foydasining o'sishini va o'rta muddatli istiqbolda ularning moliyaviy salohiyatini oshirishni ta'minlaydi. Investitsiyalar uchun kompaniya foydasidan samarali foydalanish moliyaviy salohiyatni barqaror uzoq muddatli kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Zamonaviy sharoitda korxonalar foydasini oshirish va milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishga xizmat qiluvchi moliyaviy salohiyatni shakllantirishning muhim yo'nalishi bu mahsulot turlarini kengaytirish, zamonaviy uskunalar va zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'z aksini topuvchi innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Amortizatsiya milliy va hududiy iqtisodiyot moliyaviy salohiyatining unsuri sifatida moddiy va ma'naviy eskirgan uskunalarni o'z vaqtida almashtirish, ishlab chiqarishni keng miqyosda yangilash, mahsulot sifatini yaxshilash va shu bilan ularning milliy va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan mablag'larni shakllantirishga imkon beradi. Texnologik rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish, innovatsiyalardan keng foydalanish sharoitida amortizatsiya me'yorini oshirish va uskunalarining to'liq amortizatsiya vaqtini qisqartirish zarurati tug'iladi. Amortizatsiya jarayonini tartibga solishdagi bunday o'zgarishlar moliyaviy salohiyatning unsuri sifatida amortizatsiya qiymatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi mumkin.

Ma'lumki, budjet tizimiga kelib tushuvchi soliq va yig'imlar budjet yili mobaynida foydalaniladi, ammo ularning o'rta va uzoq muddatli dinamikasi tendentsiyalari milliy va hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish moliyaviy salohiyatini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi soliq bazasining barqaror kengayishini va shunga mos ravishda budjet tizimiga soliq tushumlarining ko'payishini belgilaydi [10]. Shuni yodda tutish kerakki, iqtisodiy o'sish to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar undiruvchanligining oshishini belgilaydi.

Makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlari kamayishi mumkin. Shunga qaramay, uy xo'jaliklari daromadlarining yuqori darajasi va shu sababli ularning bilvosita soliqlar va aksiz solig'ini to'lash bilan bog'liq katta xarajatlari budjet tizimining nisbiy barqarorligini ta'minlovchi omillardir. Ushbu omillar, shuningdek, inqiroz sharoitida milliy iqtisodiyotning moliyaviy salohiyatini saqlab qolish va uning jadal iqtisodiy rivojlanishi bilan kengayishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning moliyaviy salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanish sohasida olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

1. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi-bu faoliyatning kengayishi va yangi bozorlarning paydo bo'lishi bilan birga innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan

keng foydalanish ta'siri ostida tarmoqlar va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishi jarayonidir.

2. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish maqsadlariga quyidagilar kiradi: YaIMning barqaror o'sishini ta'minlash; milliy iqtisodiyotda yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushini oshirish; yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini kengaytirish; barqaror ichki to'lov qobiliyatiga ega talabni qo'llab-quvvatlash; biznes tuzilmalarining yuqori innovatsion faolligini ta'minlash.

3. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish natijalari quyidagilardan iborat: iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, biznes tuzilmalarining innovatsion faolligini oshirish, biznes tuzilmalari va uy xo'jaliklarining daromadlarini ko'paytirish, moliya tizimiga pul oqimlarining ko'payishi, narxlar dinamikasining pasayishi, milliy valyutani barqarorlashtirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining ko'payishi, barqaror agregatni samarali saqlash.

4. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish maqsadlari va natijalariga erishishda uning moliyaviy salohiyati muhim rol o'ynaydi, bu zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratish va asosiy tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun safarbar qilinishi mumkin bo'lgan amaliy va mumkin bo'lgan moliyaviy resurslar to'plamidir. Foydalanish uchun mavjud bo'lgan moliyaviy resurslar-bu milliy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan qo'shimcha moliyaviy resurslar.

5. Milliy iqtisodiyot moliyaviy salohiyatining unsurlariga quyidagilar kiradi: soliq to'langandan keyingi korxonalar foydasi; amortizatsiya; budjet tizimiga kelib tushuvchi soliqlar va yig'imlar; davlat kompaniyalarning budjet tizimiga to'lovlari; bank tizimidan olingan kreditlar; uy xo'jaliklari jamg'armalari; investitsiya va pensiya jamg'armalari resurslari; milliy moliya bozorining qarz vositalari; mikromoliyalash tashkilotlarining resurslari; xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy hukumatlarning kreditlari; to'g'ridan-to'g'ri va portfel xorijiy investitsiyalar.

6. Moliyaviy salohiyatning etariligi milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishni amalga oshirishning eng muhim shartidir. Ushbu salohiyat innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ularni ishlab chiqarishga o'z vaqtida joriy etish va keng savdo bozorlariga ega yangi, texnik jihatdan ilg'or mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ilmiy, ishlab chiqarish va rivojlantirish bo'limlarining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Moliya va soliqlar. darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.Urazmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D. B. Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2023.", – 564 b.

2. Yuldashev Fozil Turapovich // "Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari" mavzusida 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati // T.2023 y.

3. Эргашев, Ж. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИ ОШИРИШДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР ТАҲЛИЛИ. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(7), 444–449. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp444-449>

4. Буранова, Л. В., Саттаров, Т. О., & Шамсиддинов, С. Ф. (2023). ФИНАНСОВЫЙ ПОТЕНЦИАЛ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ НАЛОГОВ МЕЖДУ

БЮДЖЕТАМИ БЮДЖЕТНОЙ СИСТЕМЫ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 260–267. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3313>

5. Қобулов Хотамжон Абдукаримович ҲУДУД ДАРОМАД САЛОҲИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА “БЮДЖЕТ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” ВА “МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” // ORIENSS. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/udud-daromad-salo-iyatini-shakllantirishda-byudzhet-or-ali-tartibga-solish-usullari-va-ma-alliy-byudzhetlarni-tartibga-solish> (дата обращения: 19.12.2023).

6. Хазраткулова Л.Н. ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ МЕЖБЮДЖЕТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Вестник Самарского университета. Экономика и управление. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-i-otsenka-effektivnosti-sistemy-mezhbyudzhethnyh-otnosheniy-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 19.12.2023).

7. 2023 йил учун макроиктисодий шарҳ/www.cer.uz

8. Akramov, G. (2024). HUDUD MOLIYAVIY SALOHİYATINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(1), 18–26. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss1-pp18-26>

9. Abduvoxidov, A., & Matkuliyeva, S. (2023). BUDJET SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(8), 5–19. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss8-pp5-19>

10. Абдувохидов А. А. и др. ТУЗИЛМАВИЙ СИЁСАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 11.

11. Умаров, И. Ю., & Бегбутова, М. М. (2017). Роль иностранных инвестиций в устойчивом экономическом развитии страны. In *Статистические методы исследования социально-экономических и экологических систем региона* (pp. 161-166).

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

